(8). Sharipov F. O‘zbekiston terma jamoasining “Osiyo kubok”laridagi ishtiroki. Research and Implementation. 2024, 2(5), 10–14-betlar.
(9). Sharipov F., Ilyosboyev S. O‘zbekiston milliy futbol terma jamoasining 2026-yilgi FIFA Jahon chempionatiga chiqishi: ijtimoiy-madaniy tahlil. “Наука и инновация”, maxsus son, 2025,
(10). To‘laganov A.A. O‘zbekiston Futbol federatsiyasining xalqaro integratsiyasi (1992–2025-yillar). Tadqiqotlar jahon ilmiy-metodik jurnali. 2024, 39-son, 5-to‘plam.
(11). To‘laganov A.A., Kazoqov R.T. Futbol konfederatslari tarixi: uslubiy qo‘llanma. Chirchiq, O‘zbekiston davlat Jismoniy tarbiya va sport universiteti nashriyoti, 2019, 120-bet.
(12). Abdikadirova N.S., Nurillaeva D.S., Azamova M.G. et al. Football in Uzbekistan: Law, Leisure and Sociology. Psychology and Education Journal. 2021, 58(1), p. 1995–2002. ISSN: 00333077.

Ismailova Shahzoda (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Lingvistika: ingliz tili yo‘nalishi 2-kurs magistranti; ismailovashahzoda914@gmail.com),
Pulatova Zamira Abdullayevna (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Ingiz tili va adabiyoti” kafedrasi dotsenti v.b.; pulatova77@bk.ru)

INGLIZ TILIDAGI EVFEMIZMLARNING QO‘LLANILISHI VA ULARNING TARJIMADAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz tilidagi evfemizmlarning qo‘llanilishi, ularning tarjimadagi ahamiyati, tarjima jarayonida o‘zaro tillarning madaniy va ma’no jihatdan mosligini, hissiy ta’sir kuchini saqlash va bu jarayonda yuzaga keladigan muammolar yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *evfemizm, lingvoragmatika, tarjima, ingliz tili, tarjima muammolari, madaniy moslik.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЭВФЕМИЗМОВ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В ПЕРЕВОДЕ

Аннотация. *В данной статье рассматривается использование эвфемизмов в английском языке, их значение в переводе, сохранение культурной и семантической эквивалентности между языками в процессе перевода, а также сохранение эмоционального воздействия и проблемы, возникающие в ходе данного процесса.*

Ключевые слова: *эвфемизм, лингвопрагматика, перевод, английский язык, проблемы перевода, культурная эквивалентность.*

ENGLISH EUPHEMISMS: USAGE AND IMPORTANCE IN TRANSLATION

Annotation. *The article discusses the use of euphemisms in the English language, their significance in translation, the cultural and semantic compatibility between languages in the translation process, the preservation of emotional impact, and the challenges that arise during this process.*

Keywords: *euphemism, linguopragmatics, translation, English, problems of translation, cultural appropriateness.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslik va tarjimashunoslikning eng murakkab qirralaridan biri bu fikrni bilvosita, ya’ni “parda ortida” ifodalash san’atidir. Insoniyat muloqot jarayonida har doim ham ochiqlikka intilavermaydi; ba’zan ijtimoiy etika, ba’zan, qo‘rquv yoki siyosiy ehtiyotkorlik bizni so‘zlarni “yumshatishga” majbur qiladi. Aynan mana shu nuqtada evfemizmlar (yunoncha *euphemismos* – “yaxshi gapiraman”) tushunchasi maydonga chiqadi.

Evfemizmlar bu qo‘pol, noxush, tabu hisoblangan yoki tinglovchida salbiy emotsiya uyg‘otishi mumkin bo‘lgan tushunchalarni neytral yoki ijobiy bo‘yoqdorlikka ega bo‘lgan iboralar bilan almashtirishdir. Masalan, “o‘ldi” deyish o‘rniga “vafot etdi”, “qamoqxona” o‘rniga “axloq tuzatish muassasasi” birikmalarining qo‘llanilishi tilning lisoniy diplomatiyasidan dalolat beradi.

Globalizatsiya davrida matnlarni bir tildan ikkinchi tilga o‘girishda evfemizmlar eng katta “to‘siq” vazifasini o‘taydi. Tarjimon uchun asosiy qiyinchilik shundaki, evfemizm shunchaki so‘z o‘yini emas, balki muayyan xalqning mentaliteti, diniy qarashlari va tarixiy tajribasi bilan sug‘orilgan madaniy koddir. Bir til-da o‘ta muloyim eshitilgan ibora, boshqa til muhitiga so‘zma-so‘z ko‘chirilsa, tushunarsiz alqashuvga yoki aksincha, kutilmagan haqoratga aylanishi mumkin.

Ushbu maqolaning maqsadi evfemizmlarning lisoniy tabiatini tadqiq etish va ularni tarjima qilishda yuzaga keladigan leksik-semantik hamda lingvokulturologik muammolarni ilmiy tahlil qilishdan iborat.

Mavzuga doir adabiyotlarning tahlili. Evfemizmlar lingvistika, pragmatika va tarjima sohalarida keng o‘rganilgan. Allan va Burridge (2006) evfemizmlarning ijtimoiy vazifasi va nutqdagi yumshatuvchi rolini batafsil tahlil qilgan.

R.Holder (“Dictionary of Euphemisms”) evfemizmlarni “yashirish tili” deb ataydi. Uning fikricha, ingliz tilida evfemizmlar, asosan, uch sohada – o‘lim, jinsiy hayot va jinoyatchilikda ko‘p uchraydi.

K.Allan va K.Burridge ("Euphemism, Dysphemism") kabi tadqiqotchilar evfemizmlarni "yuzni saqlab qolish" (face-saving) strategiyasi sifatida tahlil qiladilar. Ular evfemizmni muloqotdagi ijtimoiy uyg'unlikni saqlash vositasi deb hisoblashadi. Allan va Barridjning fikricha, evfemizm ishlatishdan maqsad faqat haqiqatni yashirish emas, balki "ijtimoiy hamkorlik"ni (Social Cooperation) davom ettirishdir. Agar muloqotda hamma hamma narsani boricha, ya'ni, qo'pol tarzda aytganda edi, muloqot juda tez to'xtab, nizolar ko'payib ketardi.

J.Neaman va R.Silvermanning tadqiqotlariga ko'ra, zamonaviy ingliz tilida "siyosiy korrektlik" (political correctness) tufayli evfemizmlarning yangi qatlami paydo bo'lgan. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, "siyosiy korrektlik" (PC–political correctness) harakati tilga yangi bir "filtr" olib kirdi. Bu filtrning maqsadi – jamiyatdagi kamsonli yoki zaif qatlamlarni kamsitmaslik va ularning qadr-qimmatini so'z orqali himoya qilishdir. Mualliflar zamonaviy evfemizmlarni shunchaki "yumshoq so'z" emas, balk "neytralizatsiya" (salbiy bo'yoqni yo'qotish) vositasi deb hisoblashadi.

Ingliz adabiyotining klassik an'anasida Jane Austen (1775–1817) o'zining realistik uslubi, jamiyatning ijtimoiy qatlamlari tasviri, axloqiy qarashlarni badiiy aks ettirishi bilan alohida o'rin egallaydi. Tadqiqotchilar (A.Harding, M.Butler, Tony Tanner va boshqalar) Austen ijodini "psixologik realizmning shakllanishi" bilan bog'laydilar, chunki u qahramonlarning ichki kechinmalarini, jamiyatdagi mavqesi va til orqali namoyon bo'ladigan ijtimoiy muloqot mexanizmlarini nozik tarzda tasvirlaydi.

Jeyn Ostinning "Emma" romani XIX asr boshidagi ingliz jamiyatining yuksak odob-axloq qoidalari va ijtimoiy tabaqalanishini aks ettiradi. Ushbu davrda bevosita va qo'pol gapirish "yomon tarbiya" belgisi hisoblangan. Shuning uchun Ostin qahramonlari, ayniqsa Emma Vudxaus obrazida evfemizmlardan juda ustamonlik bilan foydalanadi. Ko'plab olimlar "Emma" romanini nutq pragmatikasi, xususan, evfemizm, indirektlik, iltifot munosabatlari va muloqotdagi ijtimoiy masofa kabi yo'nalishlar bilan bog'lab tahlil qilgan.

Ostin davrida insonning moddiy ahvoli haqida ochiq gapirish odobsizlik sanalgan. Shuning uchun ijtimoiy tabaqa va boylikni ifodalovchi evfemizmlar qashshoqlik yoki boylik yumshoq iboralar bilan berilgan. Masalan, "Of small fortune" yoki "In narrow circumstances" iboralari "kambag'al" (*poor*) so'zi o'rniga ishlatilgan. Miss Beyts va uning onasi haqida gapirilganda, ularning ijtimoiy mavqeyi tushib ketganini bildirish uchun aynan shu yumshoq birikmalar tanlanadi. Ushbu iboraga qarama-qarshi bo'lgan yana bir ibora "A person of consequence", "juda boy va nufuzli shaxs" degan ma'noni bildiradi. Emma o'zini va o'z doirasini tavsiflashda ushbu evfemizmdan foydalanadi.

"Emma" romanida sevgi va nikoh masalalari markaziy o'rinda turadi, ammo qahramonlar his-tuyg'ularini juda ehtiyotkorlik bilan ifodalashadi. Masalan, "to form an attachment" iborasi "sevib qolish" (*to fall in love*) o'rniga ishlatiladi. Bu tuyg'ularning tasodifiy emas, balki ijtimoiy jihatdan maqbul munosabat ekanligini bildiradi. "To be well settled" iborasi "yaxshi joyga uzatilgan" yoki "boy-badavlat kishiga turmushga chiqqan" degan ma'noni anglatadi. Nikohning iqtisodiy tomonini yashirish uchun ishlatiladigan klassik evfemizm.

Tadqiqot metodologiyasi. Korpus tahlili orqali ingliz tilidagi adabiy asarlar, ommaviy axborot vositalari va rasmiy nutqlarda qo'llaniladigan evfemizmlar ilmiy asosda o'rganiladi. Korpus tahlil bu komputer yordamida izlanadigan va tahlil qilinadigan tillarga oid materialdir. Korpus tahlilga misol tariqasida romanlar, gazetalar, ilmiy maqolalar va internetga oid ma'lumotlarni olish mumkin. Evfemizmlarni korpus tahlili orqali tadqiq qilish–bu tilshunoslikdagi zamonaviy usuli bo'lib, katta matnlar (korpuslar)da evfemizmlarning qanday qo'llanilishini, ularning qanchalik ko'p matnda foydalanilayotganini, kontekstini, semantikasi va ijtimoiy vazifasini ma'lumotlarga asoslangan holda va kompyuter yordamida o'rganishdir. Masalan, "pass away" birikmasi Emma romanida ancha faol ishlatilgan yoki "die" vafot etmoq so'zi 2000 dan ko'p marta foydalanilgan. Bu usul orqali evfemizmning til tizimidagi o'rni, kontekstli variantlari va o'zgaruvchanligi aniqroq ochib beriladi. Bu tadqiqotining afzalliklari shaffoflik asosida aniq faktlarga asoslanadi, juda ko'plab misollarga tayaniladi, ma'no va uslubiy jihatdan farqlar o'rganiladi, tarjima, leksikografiya, pragmatika sohalarida ancha qamrovli foydalaniladi va evfemizmlarning matndagi nozik farqlarni ochishga yordam beradi.

Evfemizmlarni tahlil qilish bu "so'z ortidagi yashirin ma'noni" topish san'atidir. Bunda korpus tahlili (statistik ma'lumotlar olish uchun) va komparativ (taqqoslash) metodlari birgalikda qo'llanilishi eng samarali natijani beradi. Taqqoslash metodi orqali ingliz va boshqa tillardagi evfemizmlarning muqobil mos keluvchi so'zlari solishtiriladi. Evfemizmlarning bu tahlilida tillarning lingvistik, jamiyatda qo'llaniladigan tillarning farqli jihatlarini yanada kengroq tahlil qilishga yordam beradi. Solishtirish tahlilida esa til o'rganish uchun, evfemizmlarning kognitiv tilshunoslikda, shuningdek, madaniyatlararo tadqiqotlarda juda muhim hisoblanadi.

Tarjima tahlilida esa ingliz tilidagi evfemizmlarning tarjimada yuzaga keladigan qiyinchiliklarini tahlil qilish mumkin. Evfemizmlarni o‘rganishda tarjima tahlili nafaqat til bilimini, balki chuqur madaniyatlararo tushunchani ham talab qiladigan murakkab jarayondir. Bu jarayon tarjimonlarga ikki til o‘rtasidagi madaniy tabu va ijtimoiy normalarni solishtirish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Ingliz tilidagi evfemizmlar, odatda, to‘g‘ridan to‘g‘ri ifodalashdan qochadi (masalan, “died” omonatini topshirdi o‘rniga “passed away”, “depart this life”, “be no more”).

Stilistik yumshatuvchi elementlar ishlatiladi (masalan, "downsizing", asosan, idora va tashkilotlar muloqotida foydalaniladi, o‘rniga “reduction in workforce”-ish o‘rinlarini qisqartirish), poor-kambag‘al so‘zining o‘rniga financially disadvantaged – moliyaviy qiyinchilikda bo‘lmoq so‘zi qo‘llaniladi. Ba’zi evfemizmlarning ekvivalenti boshqa tillarda deyarli uchramaydi. Masalan, vafot etdi (died) so‘zini ifodalash uchun qo‘llaniladigan passed away olamdan ko‘z yumdi, vafot etdi yoki omonatini topshirdi kabi evfe-mizmning ingliz tili yoki boshqa tillarda muqobil ma'noga ega bo‘lgan so‘z mavjud bo‘lmasligi mumkin. Ijtimoiy va madaniy noziklikni saqlash, shubhasiz, qiyin. So‘zma-so‘z tarjima qilish ma’noning buzilishiga so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi aloqani yomonlashishiga sabab bo‘lishi mumkin.To‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima nutqning yumshatuvchi funksiyasini yo‘qotadi. So‘z tanlashda uning ma'nodoshlariga va qaysi uslubga doir ekanligini hisobga olish zarur.

Xulosa va takliflar. Evfemizlarning tilshunoslikdagi o‘rni nihoyatda kattadir. Ular nafaqat og‘zaki va yozma tarjimada, balki muloqotning samarali amalga oshirilishini ta’minlaydi. O‘zaro muloqotda ma’noning samarali tarzda tinglovchiga hissiy, emotsional tarzda yetib borishida evfemizlarning roli muhim o‘rin tutadi. Evfemizlarni tahlil qilishda korpus tahlilidan, tarjimashunoslikda esa taqqoslash va solishtirish usullaridan keng foydalaniladi. Xususan, Jane Austinning Emma romanida evfemizlarning nozik jihatlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Allan K., Burridge K. (2006). Forbidden Words: Taboo and the Censoring of Language. Cambridge University Press.

(2). Crysta D. (2010). The Cambridge Encyclopedia of Language. Cambridge University Press.

(3). Newmark P. (1988). A Textbook of Translation. Prentice Hall.

(4). Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo‘ng‘urov R., Rustamov H. O‘zbek tili stilistikasi. T., 1983; Omonturdiyev A. O‘zbek nutqining evfemik asoslari. T., 2000.

Rahimova Shodiya Shuxratovna (Urganch RANCH Texnologiya universiteti “Jahon tillari” kafedrasi dotsenti vazifasini bajaruvchi),

Xojibayev Otabek Ravshanbek o‘g‘li (Urganch RANCH Texnologiya universiteti 2-kurs magistratura talabasi, Lingvistika (ingliz tili), “Jahon tillari” kafedrasi; xojibayevo@gmail.com)

“CONSCIENCE/VIJDON” KONSEPTINI IFODALOVCHI FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy ingliz tilida conscience/vijdon konseptining frazeologik birliklar orqali obyektivlashuvi kognitiv-semantik hamda pragmatik yondashuvlar asosida kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida tarkibida conscience leksemasi mavjud bo‘lgan frazeologik birliklar konseptning yadroviy qatlami sifatida ajratilib, ularning semantik guruhlari (“pushaymonlik va ichki iztirob”, “vijdonsizlik va axloqiy tanazzul”, “axloqiy javobgarlik va ichki nazorat”, “pok vijdon va ruhiy xotirjamlik”, “normativ axloqiy pand-nasihat” va boshqalar) tizimli ravishda tavsiflanadi. Shuningdek, mazkur birliklarning konnotativ-aksiologik xususiyatlari, ya’ni, ijobiy va salbiy baholovchanlik jihatlari hamda ularning turli nutqiy vaziyatlarda aktual ma’no hosil qilish mexanizmlari yoritiladi. Frazeologik birliklar ortida yotgan kognitiv tuzilmalar – obraz, ssenariy va “ichki hakam” frame modeli – tahlil qilinib, vijdonning til orqali qanday konseptualizatsiya qilinishi ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, vijdon konsepti ingliz tilida, ko‘pincha, jismoniy og‘riq, savdolashuv yoki poklik kabi obrazli modellar orqali ifodalanadi va kuchli aksiologik qarama-qarshiliklar tizimida namoyon bo‘ladi. Shu tariqa, CONSCIENCE konsepti til tizimida insonning ichki axloqiy nazorati, o‘z-o‘zini baholashi va ruhiy kechinmalarini ifodalovchi murakkab, ko‘p qatlamli mental tuzilma sifatida talqin qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *VIJDON konsepti, conscience, frazeologik birlik, kognitiv semantika, aksiologiya, konnotatsiya, illokutiv effekt, mental model.*

Рахимова Шодия Шухратовна (и.о. доцента, кафедра мировых языков, Урганчский Технологический университет),

Ходжибаев Отабек Равшанбек угли (Урганчский технологический университет, магистрант 2-го курса, лингвистика (английский язык), кафедра мировых языков; xojibayevo@gmail.com)

ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ, ВЫРАЖАЮЩИЕ ПОНЯТИЕ «СОВЕТА/VIJDON»

Аннотация. В данной статье проводится всесторонний анализ объективации понятия «СОВЕТА / *VIJDON» в современном английском языке посредством фразеологических единиц на основе когнитивно-семантического и прагматического подходов. В рамках исследования выделены фразеологические единицы, со-*